

## ZEBO MIRZO SHE'RIYATI TAHLILI

Mo'sinjonova Oyjahon

Farg'ona davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Insonda tafakkur shakllanishi uchun avvalo u kimningdir fikrlaridan foydalanadi. So'ngra sekin astalik bilan o'z fikriga ega bo'la boradi. Badiiy tahlil aynan shuning uchun ham kitobxonlar uchun kerak va u adabiyotning ajralmas qismi sifatida shakllangan.

**Kalit so'zlar:** badiiy tahlil, tafakkur, dunyoqarash, musiqiylik

**Asosiy qism:** Har qanday asar tahlilga arziyi. Nafaqat nasriy asarlar balki she'riy asarlar ham turli xil ma'nolarga boy bo'ladi. Mumtoz adabiyot vakillarining g'azallarini adabiyotshunoslar turli xil ma'nolarda tahlil qilishadi. Asarni biz qanchalik ko'p tahlil qilmaylik asl mazmuni faqat shoirning o'ziga ayon bo'ladi. "Har kim o'z qarichi bilan o'lchaydi", - degan gap ham bejiz emas. Xuddi shuningdek har qanday asarni ham har bir o'quvchi o'z dunyo qarashi, o'z fikrashi bo'yicha tahlil qiladi.

O'zbek adabiyotida ayollarning ham o'ziga xos o'rni bor. Uvaysiy, Nodira, Zulfiyaxonim kabi taniqli shoiralar qatorida zamonaviy adabiyotimizning qalami o'tkir shoirasi Zebo Mirzoni ham sanashimiz mumkin.

Shoira o'zining she'rlarida ayollarning ko'nglidagi sof muhabbatni shu qadar tarannum etadiki, beixtiyor uni har bir o'qigan inson his eta oladi.

Yuragimga yurib kirasiz,

Yuragimdan ketasiz chiqib.

Nafasim yetmaydi qoling demoqqa

Ruhim devorini o'tasiz yiqib.

Bor yo'g'i yurakman, mahtal bir ishqqa,

Barcha gunohingiz keladi kechgim.

Sochilib ketaman sizsiz bo'shliqqa

Meni terib olmaydi hech kim

Ushbu baytlarni o'qir ekansiz yuragingizda muhabbat jo'sh ura boshlaydi. She'rlardagi muhabbat ifodalari, kuylanayotgan suyukli yor ta'rifi shoira ijodiga bo'lgan qiziqishni, albatta, oshiradi. Zebo Mirzo o'z she'rlarida so'zlardan shu qadar mohirona foydalanadiki, qaysidir so'zni ortiqcha deb olib tashlash yoki qaysidir bir so'zni kam deb o'ylab qo'shib qo'yish juda mushkul.

Har bir she'ri o'z ohangiga, o'z musiqiyligiga ega. Misol tariqasida biz tahlilga tanlagan she'rni ham keltirishimiz mumkin:

Qavs bog'lariga tun tushayotir,

# XXI-ASRNING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI

Yurakni bir sog'inch o'rtadi yomon.  
Hech kimga bildirmay uning yoniga  
Borgim kelayapti, Xudojon!

Ushbu she'rda qavs deya noyabr oyi aytilmoqda. Endi esa buni oddiy matn holatida ko'rsak: “- Noyabr oyi, tun tushib kelmoqda. Sog'inch yurakni siqyapti. Shoir esa yorning yoniga borishni, hatto buni hech kim sezmay qolishi istayapti.” Endi she'r ichiga kirsak. Nega aynan noyabr oyi? Aynan sog'inchni ifodalash? Chunki o'rtada firoq bor, ayriliq bor. Shoira barglar to'kilib tugagan vaqt – noyabr, tun obrazlari orqali sog'inchning, ayriliqning naqadar vahimali ekanini ko'rsatib bermoqda.

“Tush” deysan,  
“Tush” emas,  
Tushgin, deyaqol.  
Jannat ko'klaridan tushib kelayin.  
Umrining har daqiqasiga  
Ishqimni, ko'nglimni qo'shib kelayin.

Endi esa yorga murojaat bo'lmoqda. “Men borman, meni tush deb o'ylama, aksincha, tushgin de, sen uchun jannat ko'klaridan tushib kelaman. Umrining har bitta daqiqasiga o'z ko'nglimni qo'shib kelaman. Sen harchand urinma, mendan ayro bo'lolmaydigan darajada chambarchas bog'layman.”

Yoki olib ketay arshi a'lomga,  
Yo qolayin uning qoshida omon.  
Qayda qilsang, qilgin,  
ne qilsang qilgin,  
Meni undan mahrum etma, Xudojon!

Yana murojaat Yaratganga ko'chmoqda: Yorning yoniga kelib uni arshi a'loga olib ketishi uchun yoki uning yonida qolishi uchun Undan izn so'ramoqda. Manglayiga bitilgan qismatda ne bo'lsa ham rozi, faqat suygan yordan ayro qilmasa bas.

Men uning hammadan yashirgan siri,  
Jon ichida joni bo'lgim kelyapti.  
Lablarining qaynoq haroratidan  
O'Igim,  
O'Igim,  
O'Igim kelyapti!

Shoira yori uni shu qadar sevishini istamoqdaki, hammadan qizg'ansa, hammadan sir qilibn yashirsa, joni ichidagi jon kabi saqlasa va uning nafasiga shu qadar tashnaki, labidan chiqayotgan qaynoq taftdan o'lsa ham rozi.

Dunyo o'z karvonin tortib ketayotir,

# XXI-ASRNING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI

Men uning qoshiga yetaman qachon?

Menga farishtalik taxtini emas,

Bir ayol baxtini bergin, Xudojon!

Bu dunyo o'tkinchi bir karvondek. O'z ishlari bilan ovvora bo'ib yuraveradi. Agar shoira ham ushbu karvonga qo'shilib ketsa yorning yoniga yetib bora olmaslididan havotirda. Dunyo tashvishlariga qo'l silkitmoqda, farishtalik taxi ham unga kerak emas, shunchaki bir ayol baxti, bir yor muhabbatni zarur.

Bilmaysan,

Men uning qonida oqdim,

Yillarning eng nurli xayoli bo'lib

Izn ber,

qolayin shu lahzaga haqqi,

Uning, faqat uning haloli bo'lib.

Dunyoning eng baxtli ayoli bo'lib!

Endi esa murojaat taqdirga ko'chmoqda: Ey taqdir, sen bilmaysan, men uning qonida necha asrlarning eng nurli xayoli bo'lib oqdim. Endi sen menga izn ber, shu yillardan o'tib kelganim va shu lahzaga yetib kelganim haqqi, men uning haloli bo'lib qolay. Shundagina men dunyoning eng baxtli ayoli bo'laman.

Qavs bog'lariga tun tushayotir,

Dilni bir xavotir ezdi ko'p yomon.

Agar u tush bo'lsa

ming yildan beri

Kimga asrayapsan meni, Xudojon!

Kimga asraganding meni, Xudojon?!

Va she'r so'nggida shoira yana Yaratganga iltijo qilgan holda so'zini yakunlamoqda: Ey Yaratgan Egam. Noyabr bog'lariga yana tun tushmoqda. Barglar to'kilib, havolar sovimoqda. Bundan dilimga bir xavotir singgib bormoqda. Yorimga shuncha fasllar – bahor, yoz, kuz o'tib ham yetisholmaganimga ishongim kelmayapti. Balki bu tushdir. Lekin agar bu tush bo'lib chiqadigan bo'lsa ham meni kimga atab qo'ygansan, kim uchun asrayapsan?!

Shoira shu qadar ko'p savollar qurshovida qolganki, ularga javobni Xudodan o'zgasi bilmaydi. Zebo Mirzo she'rlaridagi jumboqlar kitobxonni o'ylashga, tafakkur qilishga undaydi va o'ziga ohanrabodek tortaveradi va o'quvchi she'riyat ummonida suza boshlaganini o'zi ham sezmay qoladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

# XXI-ASRNING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI

1. Zebo Mirzo. Ishq. Toshkent; Akademnashr – 2011
2. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz) elektron kutubxonasi
3. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz) sayti
4. [www.vostoka.ucoz.com](http://www.vostoka.ucoz.com) sayti
5. [www.uzhurriyat.uz](http://www.uzhurriyat.uz) sayti
6. [https://t.me/Zebo\\_Mirzo](https://t.me/Zebo_Mirzo) telegram kanali
7. Maqolani yozishda asosan ijodiy yondoshildi